

**O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, tizim tashkilotlari va hududiy bo‘linmalarning  
korrupsiyaga qarshi kurashish  
DASTURINING BAJARILISHI**

| T/r  | Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlari   | Amalga oshirish mexanizmi   | Ijro muddati              | Ijro uchun mas’ullar   | Bajarilish holati  |
|--|---|---|---------------------------|--|--|
| <b>Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat tizimini to‘liq joriy etish va ularga malakali mutaxassislarni ochiq tanlov asosida ishga qabul qilish</b> |   |   |                           |  |  |
| 1.   | Davlat ekologiya qo‘mitasi, hududiy bo‘linmalar va tizim tashkilotlaridagi Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo‘limi vakant lavozimlariga xodimlarni tayinlash choralari ko‘rish.  | Ushbu vakant joylarga tanlov e‘lon qilish;<br>Tanlovga yuborilgan hujjatlarni umumlashtirish;<br>Tanlov o‘tkazish va tanlov natijalaridan kelib chiqib, xodimlarni tayinlash. | 2022-yil sentyabr-oktyabr | Kadrlar bo‘limi<br><b>(Ashirova)</b><br>Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo‘limi<br><b>(B.Urunov)</b><br>Hududiy bo‘linmalar va tizim tashkilot rahbarlari | <b>Bajarildi:</b> Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo‘limi boshlig‘i va bosh mutaxassis lavozimiga tanlov asosida mutaxassislar buyruq asosida tayinlandi. |
| 2.   | Amaldagi ichki idoraviy hujjatlarni o‘rganib chiqib, xalqaro tajribalarga muvofiq, korrupsiyaga qarshi muvofiqlik tizimini joriy qilishga oid me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqish.<br>Bunda:<br>2.1. Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini ishlab chiqish.<br>2.2. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamentini ishlab chiqish.<br>2.3. Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnomani ishlab chiqish chiqish. | Ichki idoraviy hujjatlarni ishlab chiqish   | 2022-yil sentyabr         | Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo‘limi<br><b>(B.Urunov)</b><br>Yuridik bo‘lim<br><b>(Abduraxmanova)</b><br>Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi       | <b>Bajarildi:</b> Qo‘mita raisining 2022-yil 28-sentyabr kunidagi 450-sonli bilan Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan 14 ta ichki idoraviy hujjatlar tasdiqlandi.     |

| T/r  | Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlari  | Amalga oshirish mexanizmi   | Ijro muddati                   | Ijro uchun mas'ullar  | Bajarilish holati   |
|--|--|---|--------------------------------|---|---|
|  | 2.4. Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish.   |   |                                |   |   |
|  | Hududiy bo'linmalar va tizim tashkilotlaridagi Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo'yicha bosh mutaxassislarni tayyorlash va ularda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida nazariy hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish. | Malaka oshirish o'quv kurslarini tashkillashtirish va o'tkazish (bukletlar, ko'rgazmali materiallar tayyorlash) | 2022-yil oktyabr, yil davomida | Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo'limi<br><b>(Urunov)</b><br>Kadrlar bo'limi<br><b>(Ashirova)</b>       | <b>Bajarildi:</b> 2022-yil 26-27 oktyabr kunlari Davlat ekologiya qo'mitasi, tizim tashkilotlari hamda hududiy bo'linmalarining korrupsiyaga qarshi kurash bo'limi mutaxassislari hamda kadrlar bo'limi mas'ul xodimlari ishtirokida "Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash, mas'ul xodimlarning bilim va ko'nikmalarni oshirish" mavzusida <b>o'quv-seminar trening</b> o'tkazildi. Seminar jarayonida tegishli ko'rgazmali materiallar tarqatildi. |
| 3.   | Hududiy bo'linmalardagi Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo'yicha bosh mutaxassislarning 2022 yil 8 oyida davomida amalga oshirilgan ishlar tahlili kelgusidagi vazifalarini belgilash.                                      | ZOOM platformasi orqali yig'ilish o'tkazish va tegishli chora-tadbir belgilab olish                             | 2022-yil sentyabr oyida        | Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo'limi<br><b>(Urunov)</b><br>Hududiy bo'linmalar va tizim tashkilotlari | <b>Bajarildi:</b> ZOOM platformasi orqali yig'ilish o'tkazish va tegishli chora-tadbir belgilab olindi.   |
| <b>Korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uni oldini olish sohasida amalga oshiriladigan ishlar</b> |  |   |                                |   |   |

| T/r | Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlari | Amalga oshirish mexanizmi   | Ijro muddati              | Ijro uchun mas'ullar  | Bajarilish holati  |
|-----|---|---|---------------------------|---|--|
| 4.  | Reja-grafikka muvofiq mutaxassislarning malakasini oshirish.  | Malaka oshirish reja grafigini tasdiqlash va oliy o'quv yurtlari mutaxassislarini jalb qilgan holda o'quv kurslarini tashkil etish. | 2022-yil sentyabr-oktyabr | <p>Kadrlar bo'limi<br/><b>(Ashirova)</b><br/>Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo'limi<br/><b>(Urunov)</b><br/>Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi<br/><b>(Bozorov)</b></p> | <p><b>Bajarildi:</b> Qo'mita tomonidan 2022 yil uchun tasdiqlangan malaka oshirish reja-jadvaliga asosan joriy yil davomida tizimdagi <b>171 nafar</b> laboratoriya xodimlari, <b>26 nafar</b> hududiy Kadrlar bo'limi mutaxassislar, <b>28 nafar</b> Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo'yicha bosh mutaxassislari hamda <b>403 nafar</b> tuman (shahar) inspektorlari hamda <b>100 nafar</b> Davlat qo'riqxonalari hamda muxofaza etiladigan tabiiy hududlar xodimlari jami <b>728 nafar</b> tinglovchilarning Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazida malakasi oshirildi va maxsus sertifikatlar berildi.</p> <p>Davlat ekologiya qo'mitasining 2022 yildagi 01-01/12-13-sonli topshirig'i hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan hamkorlikda tasdiqlangan reja-jadvalga asosan haftaning har juma kunlari 16:00 dan 18:00 ga qadar Qo'mitaning sohalar bo'yicha mas'ullari</p> |

| T/r | Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlari  | Amalga oshirish mexanizmi   | Ijro muddati   | Ijro uchun mas'ullar  | Bajarilish holati   |
|-----|--|---|--|---|---|
|     |  |   |  |   | hamda OTMlari professor-o'qituvchilari tomonidan tuman (shahar) inspektorlari uchun sohalar bo'yicha <b>520 nafar</b> davlat inspektorlarining masofaviy onlayn tarzda o'qishi tashkil etildi.  |
| 5.  | <p>1. Manfaatlarni to'qnashuvi haqida xabar berishga mo'ljallangan <b>aloqa kanallarini</b> (<i>Rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifa, ishonch telefoni, elektron manzil</i>) tashkil etish va tizimli ishlashini ta'minlash.</p> <p>2. Manfaatlarni to'qnashuvi holatlari haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari va ularni ishlash tartibi to'g'risidagi ma'lumotlarni <b>rasmiy veb-sayt va boshqa OAVlarda</b> joylashtirish.</p> <p>3. Manfaatlarni to'qnashuvi haqida kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqish tartibini joriy etish.</p> <p>Bunda:<br/>- ijtimoiy tarmoqlardagi <b>rasmiy kanal va sahifalar, telegram bot</b> orqali kelib tushadigan murojaatlarni Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo'limi mas'ul</p> | Tashkiliy chora-tadbirlar, Davlat ekologiya qo'mitasi rasmiy veb-saytga qo'shimcha o'zgartirish kiritish. | 2022-yil sentyabr<br><br>2022-yil sentyabr<br><br>2022-yil oktyabr | Ekologik axborot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va multimediyaga markazi ( <b>Abdullaev</b> ) Matbuot xizmati ( <b>Do'stmurodov</b> ) Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo'limi ( <b>Urunov</b> ) | <b>Bajarildi:</b> Davlat ekologiya qo'mitasi rasmiy veb-saytiga Prezident virtual qabulxonasi ( <a href="https://pm.gov.uz/">https://pm.gov.uz/</a> ); Qo'mitaning elektron pochta - info@eco.gov.uz, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari (misol uchun Facebook rasmiy sahifasi ( <a href="http://Facebook.com/ecogovuz">http://Facebook.com/ecogovuz</a> ), Telegram messengeridagi ( <a href="https://t.me/ecogovuz">https://t.me/ecogovuz</a> ); xizmat telefon raqamlari (+998712071107 voki 1157 telegram boti (@ECOanticor bot) aloqa kanallari joylashtirildi. |

| T/r   | Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlari   | Amalga oshirish mexanizmi   | Ijro muddati                              | Ijro uchun mas'ullar  | Bajarilish holati  |
|---|---|---|---|---|--|
|   | <p>xodimi tomonidan to'g'ridan to'g'ri qabul qilish, dastlabki tekshiruvdan o'tkazish;</p> <p>- manfaatlar to'qnashuvi haqidagi xabarlarni qabul qilish reestrini yuritish va murojaatlarni ro'yxatga olish;</p> <p>- xabar beruvchining anonimligini ta'minlash.</p> |   |   |   |  |
| <b>Faoliyat ochiqligi va shaffofligini ta'minlash va bunga keng jamoatchilikni jalb etish</b> |   |   |   |   |  |
| 6.  | <p>Davlat ekologiya qo'mitasi tizimiga ishga qabul qilishni ochiq tanlov asosida amalga oshirish hamda tanlov doirasida o'tkaziladigan sinov tadbirlarini Internet tarmog'i orqali real vaqt rejimida kuzatishni nazarda tutuvchi tartib joriy etish.</p>             | <p>Me'yoriy huquqiy hujjatni ishlab chiqish va ijrosi ustidan doimiy nazorat o'rnatish.</p> | <p>2022-yil sentyabr, doimiy</p>          | <p>Kadrlar bo'limi<br/><b>(Ashirova)</b><br/>Matbuot xizmati<br/><b>(Do'stmurodov)</b><br/>Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo'limi<br/><b>(Urunov)</b></p> | <p><b>Bajarildi:</b> Davlat ekologiya qo'mitasi tizimiga ishga qabul qilishni ochiq tanlov asosida amalga oshirish hamda tanlov doirasida o'tkaziladigan sinov tadbirlarini Internet tarmog'i orqali real vaqt rejimida kuzatishni nazarda tutuvchi tartib joriy etildi.</p> |
| 7.  | <p>Ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxatiga kiritilgan axborotlar rasmiy veb-saytning bosh sahifasida alohida bo'limga tizimlashtirilgan holda joylashtirish.</p>                                   | <p>Tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish.</p>   | <p>Doimiy, har chorak yakuni bo'yicha</p> | <p>Matbuot xizmati<br/><b>(Do'stmurodov)</b><br/>Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo'limi<br/><b>(Urunov)</b></p>   | <p><b>Bajarildi:</b> Ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxatiga kiritilgan axborotlar rasmiy veb-saytning bosh sahifasida alohida bo'limga</p>   |

| T/r   | Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlari   | Amalga oshirish mexanizmi  | Ijro muddati                    | Ijro uchun mas'ullar  | Bajarilish holati   |
|---|---|--|---------------------------------|---|---|
|   |   |  |                                 |   | tizimlashtirilgan holda joylashtirildi  |
| 8.  | Jamoatchilik kengashi a'zolari ishtirokida qo'mitaning yarim yillik va yillik faoliyati sarhisobiga bag'ishlangan jamoatchilik eshituvlarini tashkil etish.   | Tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish.   | 2022-yil davomida               | Matbuot xizmati<br><b>(Do'stmurodov)</b>  | <b>Bajarildi:</b> Jamoatchilik kengashi a'zolari ishtirokida qo'mitaning yarim yillik va yillik faoliyati sarhisobiga bag'ishlangan jamoatchilik eshituvlarini tashkil etildi.  |
| <b>Ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik va targ'ibot-tashviqot ishlari</b> |   |  |                                 |   |   |
| 9.  | Davlat ekologiya qo'mitasi, hududiy bo'linmalar va tizim tashkilotlarida korrupsiya holati, tendensiyalari va sabablari, korrupsiyaga qarshi ko'rilgan choralar samaradorligi to'g'risida jamoatchilik fikrini o'rganish bo'yicha anonim so'rovlar o'tkazish. | Tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish.   | Doimiy, har chorak yakuni bilan | Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo'limi<br><b>(Urunov)</b><br>Matbuot xizmati<br><b>(Do'stmurodov)</b><br>Hududiy bo'linmalar va tizim tashkilotlari | Bajarildi: Davlat ekologiya qo'mitasi, hududiy bo'linmalar va tizim tashkilotlarida korrupsiya holati, tendensiyalari va sabablari, korrupsiyaga qarshi ko'rilgan choralar samaradorligi to'g'risida jamoatchilik fikrini o'rganish bo'yicha anonim so'rovlar o'tkazildi. |
| 10.   | Davlat ekologiya qo'mitasi, hududiy bo'linmalar va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida olib borilayotgan amaliy tadbirlarni OAVda va ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borish.  | Tashkiliy chora-tadbirlar natijasi yuzasidan har chorak yakuni bilan hisobot berib borish. | Doimiy, har chorak yakuni bilan | Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo'limi<br><b>(Urunov)</b><br>Matbuot xizmati<br><b>(Do'stmurodov)</b>   | Bajarildi: Davlat ekologiya qo'mitasi, hududiy bo'linmalar va tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida olib borilayotgan amaliy tadbirlarni 69 marotaba OAVda va ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borildi.  |

| T/r  | Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlari   | Amalga oshirish mexanizmi   | Ijro muddati                    | Ijro uchun mas'ullar  | Bajarilish holati  |
|--|---|---|---------------------------------|---|--|
|  |   |   |                                 | Hududiy bo'linmalar va tizim tashkilotlari  |  |
| 11.  | “Ekologiya sohasi korrupsiyadan holi” mavzusida tegishli ko'rsatuv va eshittirishlarda yoritib borish, bunda sohaga oid tartib-taomillar va amalga oshirilayotgan islohotlar haqida nodavlat notijorat tashkilotlari, OAV ishtirokida davra suhbatlari tashkil etish. | Tashkiliy chora-tadbirlar.  | Doimiy, har chorak yakuni bilan | Matbuot xizmati<br><b>(Do'stmurodov)</b><br>Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat bo'limi<br><b>(Urunov)</b><br>Hududiy bo'linmalar va tizim tashkilotlari | <b>Bajarildi:</b> Joriy yilning 9-dekabr Korrupsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan barcha 14 ta hududiy bo'linmalarda “Ekologiya sohasi korrupsiyadan holi” mavzusida tegishli ko'rsatuv va eshittirishlarda yoritib borish, bunda sohaga oid tartib-taomillar va amalga oshirilayotgan islohotlar haqida nodavlat notijorat tashkilotlari, OAV ishtirokida davra suhbatlari tashkil etish.<br>Shu bilan birgalikda 9dekabr kuni qo'mitaning KQK va KNB boshlig'i rahbarligida Sirdaryo viloyatida davra suhbatlari tashkil etildi va ko'rgazmali targ'ibot materiallari davla inspektorlariga tarqatildi. |
| <b>Qonunchilikka rioya etilishi yuzasidan davlat ekologik nazoratini amalga oshirish</b> |   |   |                                 |   |  |
| 12.  | atmosfera havosi, yer, yer osti boyliklari, suv, o'rmonlar, hayvonot va o'simlik dunyosini, muhofaza  | Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ish hujjatlari<br><b>“E-ma'muriy ish”</b> tizimi orqali | 2022-yil dekabr                 | Moliya boshqarmasi (Murodov)  | <b>Bajarilmoqda:</b> atmosfera havosi, yer, yer osti boyliklari, suv, o'rmonlar, hayvonot va   |

| T/r | Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlari   | Amalga oshirish mexanizmi   | Ijro muddati      | Ijro uchun mas'ullar   | Bajarilish holati   |
|-----|---|---|-------------------|--|---|
|     | etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishda qonunchilikka rioya etilishi yuzasidan davlat ekologik nazoratida inson omilini minimallashtirish choralarini ko'rish | Davlat ekologiya qo'mitasi tizimida faoliyat ko'rsatayotgan 1440 nafar davlat inspektorlari uchun 580 dona maxsus planshetlarda elektron tarzda rasmiylashtirishni yo'lga qo'yish.<br>Shu bilan birgalikda davlat inspektorlarning korrupsion xavf-xatar darajalarini minimallashtirish maqsadida 2023 yilda esa 920 dona maxsus planshetlar va 1440 dona bodikameralar xarid qilib olish | 2023-yil davomida | Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi nazorat bo'yicha inspeksiya (Qurbonov) | o'simlik dunyosini, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishda qonunchilikka rioya etilishi yuzasidan davlat ekologik nazoratida inson omilini minimallashtirish masadida Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ish hujjatlari "E-ma'muriy ish" tizimi orqali Davlat ekologiya qo'mitasi tizimida faoliyat ko'rsatayotgan 1440 nafar davlat inspektorlari uchun 580 dona maxsus planshetlarda elektron tarzda rasmiylashtirishni yo'lga qo'yildi. Shu bilan birgalikda ushbu ishlarni davo ettirib, 2023 yilda esa 920 dona maxsus planshetlar va 1440 dona bodikameralar xarid qilib olish rejalashtirilib olindi. |

Korrupsiyaga qarshi kurashish va  
komplaens nazorat bo'limi boshlig'i



B.Urunov